

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Manzura Abjalova

O'zbek tilidagi mantlarni avtomatik morfologik tahlil qilishda
lemmatizatsiya va stemming jarayoni.....6

Ləman Həsənova

Azərbaycan dilində alınma turizm terminləri və onların Nizama
salınma prosesi.....22

Adabiyotshunoslik

Hulkar Aliqulova

O'zbek va qozoq yor-yorlarining boshqa to'y qo'shiqlari bilan
munosabati36

Aygul Chobanova

Zalimxon Yoqub she'rida qofiya, ritm va intonatsiya boyligi.....55

Atilla Süleymanlı

“Özbəkistanım” – Tarix, Mədəniyyət və
Milli Kimliyin Poeziyada Əksi.....68

Fan. Ta'lim. Metodika

Мадина Назарова

Использование искусственного интеллекта в образовании:
преимущества, недостатки и перспективы.....80

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylarning boshqaruv tizimida turklar.....100

Sema Dülgar, Şeyda Naciye Ötegen Cuma

Bir Derviş ve Bir Seyyahın Kesişim Noktası: Seyahat
(Sarı Saltuk ve İbn Batuta Özeline).....118

CONTENT

Linguistics

Manzura Abjalova

Lemmatization and stemming processes in automatic morphological analysis of Uzbek texts.....6

Laman Hasanova

The Borrowed Tourism Terms in Azerbaijan Language and their Regulation Process.....22

Literature

Hulkar Alikulova

The Relationship of Uzbek and Kazakh Yor-Yor Songs to Other Wedding Songs.....36

Aygul Chobanova

Richness of Rhyme, Rhythm and Intonation in Zalimkhan Yagub's Poem.....55

Atila Suleymanli

"My Uzbekistan": Reflection of History, Culture and National Identity in Poetry.....68

Science. Education. Methodology

Madina Nazarova

The usage of Artificial Intelligence in Education: Advantages, Disadvantages and Prospects.....80

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Turks in the Samanid's Administration.....100

Sema Dulgar, Sheyda Naciye Otegen Cuma

The Intersection of a Dervish and a Traveler: Travel (Specially on Sari Saltuk and Ibn Battuta).....118

TARIX. MANBASHUNOSLIK
HISTORY. SOURCE STUDIES

Somoniylarning boshqaruv tizimida turklar

Shamsiddin Kamoliddin¹¹

Abstrakt

Somoniylar hukmronligi davrida (IX – X asrlar) turklar Bag‘dod-dagi Abbosiylar saroyidagi kabi bu sulola hukmronligining boshidan oxirigacha barcha darajadagi boshqaruv ishlarida muhim o‘rin egallaganlar. Somoniylar davrida ularning saroyida ham Xuroson va Movarounnahrning ularga qarashli bo‘lgan boshqa shahar va viloyatlarida ham deyarli barcha asosiy mansablarni turklar egallagan. Mudofaa va huquq-tartibot ishlari esa butunlay turklarning qo‘lida edi. Somoniylarning ko‘p turk lashkarboshilari yirik ma‘muriy va siyosiy arboblardan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘zlarining hukmdorlar sulolalariga asos solganlar va O‘rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim o‘rin egallaganlar. Xuddi Abbosiylar saroyida bo‘lgani kabi Somoniylarga qarashli viloyatlardagi ko‘plab turk hukmdorlari hokimiyatga harbiy xizmat orqali kelganlar. Biroq ular orasida islomgacha bo‘lgan mahalliy turk sulolalarining ko‘plab avlodlari ham bor edi. Ularning ajdodlari Somoniylardan oldin bu yerlarga egalik qilgan, shuning uchun ular markaziy hokimiyatni faqat nomiga tan olar edilar, amalda esa deyarli mustaqil edilar. Somoniylar taxtdan ag‘darilib, hokimiyat yangi musulmon-turk sulolasi – Qoraxoniylar qo‘liga o‘tganida, ularning ko‘pchiligi hech ikkilanmasdan yangi hukmdorlar xizmatiga o‘tdi.

Tayanch so‘zlar: *Arab xalifaligi, Xuroson, Movarounnahr, Somoniylar, turklar, turk harbiy boshliqlari.*

Kirish

Somoniylar To‘xoriston turklaridan kelib chiqqan bo‘lib, ularning madaniyatiga Eron madaniyati sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan, shuning uchun ular fors tili va madaniyatining rivojlanishiga katta e‘tibor berganlar. Arablar Markaziy Osiyoning siyosiy maydonidan ketgandan keyin musulmon tamadduni fors-islom qarishuvi sifatida

¹¹Shamsiddin Kamoliddin Sirojiddin o‘g‘li – tarix fanlari doktori, professor, Oriental uinversiteti.

E-pochta: shamskamol@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2469-8717

Iqtibos uchun: Kamoliddin, Sh. S. 2024. “Somoniylarning boshqaruv tizimida turklar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3: 100 – 117.

qabul qilina boshladi. Musulmon madaniyati esa, birinchi navbatda fors tili bilan bog'lana boshladi [Гюль 2002, 24; 2005, 25 – 27]. C. E. Bosvortning ta'kidlashicha, ilk G'aznaviylar o'zlariga bo'ysungan mamlakatlardagi boshqaruv tizimining fors-musulmon ruhiga singib ketishda ajoyib qobiliyat ko'rsatib, turklar tomonidan musulmonlar dunyosining markaziy va sharqiy qismlarida o'rnatilgan barcha ma'muriyatlar uchun boshqaruv tizimi namunasini yaratganlar [Bosworth 1981, 27]. Biroq, bizningcha, ular musulmon olamida fors-musulmon an'anasi yutuqlariga tayanib, o'z boshqaruv tizimini yaratgan birinchi turklar emas edi. Ulardan oldin bu ishni Somoniylar qilgan bo'lib, ularni har jihatdan musulmonlar davridagi turk boshqaruv tizimining asoschilari deb hisoblash mumkin. Bu yangi turk boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyati fors tilining keng qo'llanilishi va forslarning boshqaruv an'analari tayanishdan iborat edi. G'aznaviylar esa Somoniylar asos solgan barcha an'ana va yutuqlarning merosxo'ri va davomchilari edi [Хилал ас-Саби, 91; Гардизи, 23, 90 – 104; Bosworth 1969, 28 – 29]. O'rta Osiyo hududida keyingi davrlarda XX asr boshlarigacha hukm surgan barcha turk sulolalari va davlatlari (G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar va boshqalar) ning boshqaruv tizimi aynan shu asosda qurilgan.

Somoniylarning ajdodlari turklar bo'lganligi sababli, turklar, xuddi Bag'doddagi Abbosiylar saroyidagi kabi Somoniylar hukmronligining boshidan oxirigacha ularning boshqaruv tizimida muhim o'rin egallaganlar. Turklar Ismoil ibn Ahmad qo'shinining asosini tashkil qilgan, uning hukmronligi davrida qo'shin qo'mondoni Boris ismli turk g'ulomi bo'lgan [Босворт 1981, 26]. Uning mavqeyi shu qadar kuchli ediki, 296/908-09-yilda u 4 ming turk g'ulomlari bilan Somoniylarni tark etib, xalifa huzurida daxlsizlik izlab Bag'dodga kirib bordi. Ismoil esa uni Ray shahrigacha quvib, keyin Buxoroga qaytib keldi. Keyin Boris Iroqdagi Dayr Rabiya viloyatiga hokim etib tayinlandi [Ибн Мискавайх, 165]. Ismoil ibn Ahmadning eng ishonchli odamlaridan biri Takin (تکین) ismli turk edi. Ismoil uni Bag'doddagi xalifa al-Mu'tadid bi-lloh huzuriga vakil qilib yubordi [ал-Карши, 99]. Ismoil ibn Ahmadning o'g'li va vorisi Ahmadning qo'shini tarkibida o'sha davrda Buxorodagi ikki asosiy siyosiy kuchdan birini tashkil etuvchi 10 mingga yaqin turk mamluklari bo'lgan [Treadwell 2000, 399, 402].

IX asrda turklar Somoniylar saroyi ma'muriyatining salmoqli qismini tashkil qilgan. Hududlarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Somoniylarga qarashli hududlarga hokim etib tayinlangan

mahalliy hukmdorlarning aksariyati turklar edi.¹ Mudofaa va huquq-tartibot ishlari esa butunlay turklarning qo'lida edi. Qolaversa, Somoniylar qo'shinining faqat bir qismi sobiq ko'chmanchilardan terib olingan turk qullaridan tashkil topgan bo'lsa, qolgan qismi "o'z uyini va yashash joyini bilgan" erkin odamlar, ya'ni o'troq aholidan iborat bo'lgan [al-Istakhri, 292]. X asr boshlariga kelib, O'rta Osiyoning shimoliy qismidagi Isfijob, Taroz va boshqa shaharlarda yashovchi turklarning salmoqli qismi islom dinini qabul qilgandan so'ng, turklarning Somoniylar boshqaruv tizimidagi o'rni yanada kuchaydi. Aynan Somoniylar turklarning islom jamiyatida yuksalishi uchun barcha zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berdi [Ибн Хассул, 113].

Somoniylar davrida xuddi Abbosiylar poytaxti Bag'doddagi kabi² ham ularning Buxorodagi saroyida, ham ular qo'l ostidagi Xuroson va Movarounnahrning boshqa shahar va viloyatlarida deyarli barcha asosiy lavozimlarni turklar egallab turgan [Togan 1981, 55]. Turklar xalifalarga nafaqat Bag'dodda, balki boshqa shahar va viloyatlarda ham isyonkor arab zodagonlarini yo'q qilishga yordam berdilar va shundan keyin saroydagi va xalifalikdagi barcha asosiy lavozimlarni egalladilar [Певзнер 1980, 219 – 225]. Somoniylarning ham ko'pchilik turk harbiy boshliqlari yirik davlat amaldorlari va siyosiy arboblari edi, masalan, Ayach, Aytash, Ali-tegin, Alp-Arslon, Alp-tegin, Oltuntosh, Banichur, Bektosh, Bektuzun, Qora-tegin, Sabuk-tegin, Simjur, Tosh va boshqalar shular jumlasidan bo'lib, ularning ko'pchiligi o'zlarining hukmdorlar sulolalariga asos solganlar va O'rta Osiyo siyosiy hayotida muhim o'rin egallaganlar [Mercil 1994, 253 – 266]³. Bundan tashqari, yozma manbalar va tangalardagi ma'lumotlarga ko'ra, IX – X asrlarda Somoniylarga qarashli bo'lgan turli shahar va viloyatlarda hukmronlik qilgan hokimlarning ko'plari, ularning ismlariga qaraganda, turklar edi,

¹ O'sha davrda kimnidir hokim etib tayinlash amalda unga o'sha yerni mulk qilib berish bilan barobar edi [Якубовский 1946, 108].

² Abbosiy xalifalarining Bag'doddagi saroyida turklarning soni shunchalik ko'p, nufuzi esa shunchalik baland ediki, ular deyarli barcha asosiy lavozimlarni egallab, xalifalikning siyosiy va iqtisodiy hayotini nazorat qilganlar. Ular taxtga faqat o'zlariga yoqqan, turklarning manfaatlariga xizmat qiladigan va ularning istaklarini so'zsiz bajaruvchi hukmdorlarni o'tqizganlar. Bag'doddagi eng ko'zga ko'ringan turk davlat arboblari Abu s-Soj, Ahmad ibn Tulun, Ashnos, Baghir at-Turkiy, Badr al-Asbag', Bakbak, Barjux, Bug'a al-Kabir, Bug'a as-Sag'ir, Vosif at-Turkiy, Zurofa at-Turkiy, Itah al-Xazari, Kanjur, Munis al-Xodim, Simo at-Tavil, Sotekin, Utamish, Xoqon va boshqalar hamda ularning ko'p sonli avlodlari Abbosiylar tarixida chuqur iz qoldirganlar [ас-Сули, ismlar ko'rsatkichi].

³ Masalan, IX – X asrlarda To'xoristonda Banichur avlodlari, Xurosonda Simjur avlodlari, G'aznada Sabuk-tegin avlodlari, Bust va ar-Ruxxajda Qora-tegin avlodlari, Kobulda turk Kobulshohlar sulolasi va boshqa turk sulolalari hukmronlik qilganlar.

masalan: Aytug'di-bek, Aytug'mish, Alkunmish, Arslon, Bayqara, Bay-tegin, Baytuz, Bek-tegin, Bilga-tegin, Bughra al-Kabir, El-Mangu, Inaj, Injur, Yalbog', Yinal-tegin, Qanda-tegin, Kunbosh, Qut-tegin, Mamraj, Nush-tegin, Sabukra, Suboshi-tegin, Tughan, Tuztosh, Fayoz-bek, Fotegin, Xumor-bek, Xumortosh, Shar-tegin, Shukr-tegin va boshqalar. Jami turklardan 80 ga yaqin yirik amaldorlar va siyosiy arboblardan Somoniylarning ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimida xizmat qilganlar [Sumer 1999, 537 – 552]. Asli Xurosondan bo'lgan ko'pgina turk hukmdorlari Bahrom, Farrux, Feruz, Xusrav kabi eroniy ismlarga ega bo'lganlar [Босворт 1971, 162, 237; Кочнев 1999, 252]. Bundan tashqari, ko'plab turklar islom dini bilan birga arabcha ismlarni ham qabul qilganlar, shuning uchun manbalardagi ma'lumotlardan ularning asl kelib chiqishini aniqlash qiyin. Masalan, X asrning ikkinchi yarmida Somoniylar saroyidagi eng nufuzli kishilardan biri Abu Mansur Muhammad ibn Matt al-Isfijobiy bo'lib, uning asl kelib chiqishi Isfijob shahridan kelgan turklardan edi [Бартольд 1963, 325 – 326]. Saljuqiylar sulolasiga mansub Yinol ismli hukmdorlardan birining yana bir ismi Ibrohim bo'lgan [Ibn al-Athir IX, 191].

IX asrda Somoniylar boshqaruvi tizimida arablar va forslar yetakchi o'rinlarni egallab, turklarning soni hali unchalik ko'p emas edi, lekin X asr boshlariga kelib ular allaqachon boshqaruv tizimidagi deyarli barcha asosiy lavozimlarni egallab turgan edi. Turklarning barchasi, albatta, davlat tili hisoblangan arab tilini, shuningdek, o'sha davrda saroy zodagonlarining tili sifatida qabul qilingan *darivy* (дарӣ), ya'ni fors tilini yaxshi bilganlar va ma'muriyat ishini yuritishni shu tillarda olib borganlar. Turklar tajribali ma'muriyatchi va mohir boshqaruvchi bo'lib, nafaqat Abbosiylarning Bag'doddagi saroyi, balki Misrdagi Tuluniylar va Suriyadagi Ixshidiylar saroylaridan tortib, Somoniylar saroyigacha bo'lgan ko'plab hukmdorlarning saroylarida turli lavozimlarni egallab xizmat qilganlar [Хилал ас-Саби, 67 – 69]. Binobarin, Somoniylarga qarashli bo'lgan barcha hududlarda aholining salmoqli qismini tashkil etgan turklar nafaqat "Somoniylar tamadduni" [Литвинский 1999, 19], balki umuman islom madaniyati rivojiga ham katta hissa qo'shganlar [Камолиддин 2018, 169 – 181].

Yuqorida aytganimizdek, IX – X asrlarda Somoniylarga qarashli bo'lgan ko'pgina shahar va viloyatlarda mahalliy turk sulolalar hukmronlik qilgan. Masalan, Isfijobda qarluq hukmdorlari sulolasi al-Muttiylar hukmronlik qilgan [Кочнев 1993, 17 – 20; 2006, 158, 256, 257]. Chag'oniyonda Muxtojyilar sulolasi hukm

surgan bo'lib, ularning ajdodi Muxtoj Chag'oniyonning islomgacha hukm surgan turk hukmdorlari Chag'on-xudotlar sulolasining avlodlaridan bo'lgan [de Zambaur 1927, 204]. Muxtojiylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Muzaffar turkcha *qiya / qaya* unvoniga ega edi¹. Kesh shahri va viloyati Somoniylarning lashkarboshisi va hojibi Bektuzunning mulki bo'lib, u Qoraxoniylar davrida ham Kesh hukmdori edi [Кочнев 1982, 152 – 157]. Ilq viloyatini mahalliy turk dehqonlari sulolasi boshqargan [Федоров 1971a, 85 – 89]. Choch va Farg'onada viloyatlarida ham Turk xoqonligi davridan saqlanib qolgan mahalliy turk hukmdorlari sulolalari hukm surgan. To'xoristonning turli shahar va viloyatlarini Banichuriylar sulolasi vakillari boshqargan [de Zambaur 1927, 202], ularning asoschisi Banichur Sug'd ixshidi Ghurakning kenja o'g'li edi [Камолиддин 2003б, 66 – 67]. Bu sulolaning hokimiyat tepasiga kelishi ham Somoniylar singari Abbosiylar xalifaligining harbiy-siyosiy tuzilmasidagi xizmati bilan bog'liq edi. Banichurning o'g'li Hoshim ibn Banichur 218/833-yilda xalifa al-Mu'tasim davrida Kavkazdagi Bobak qo'zg'oloni tarafdorlari bilan jang qilish uchun al-Jibol viloyatiga yuborilgan qo'shinning lashkarboshisi bo'lib, o'shanda ulardan mag'lubiyatga uchragan edi [al-Ja'kubi II, 561]. U Samarradagi xalifa saroy majmuasining qurilishida qatnashgan Xuroson harbiy boshliqlari qatorida tilga olinadi [al-Jakubi, 260]. Uning ukasi Dovud ibn Banichur 206/821–22-yilda Janubiy Eron, al-Bahrayn va al-Yamomaga hokim etib tayinlangan [at-Tabari III, 1044 – 1045].

Al-Balozuriyning yozishicha, Hoshim ibn al-M...jur (Banichur) al-Xuttaliy nisbasiga ega bo'lib, butun al-Xuttal (Xuttalon, Xatlon) hukmdori bo'lgan [ал-Балазури, 119, 430]. U 243/857–58-yilda vafot etganidan so'ng al-Xuttalda hokimiyat Banichuriylar oilasining boshqa vakillariga meros bo'lib o'tdi. Hoshimning o'g'li Abbas dastlab Xuroson amiri Abdulloh ibn Tohir qo'mondonligi ostida bo'lib, 211/826–27-yilda Fustat shahriga hokim etib tayinlanadi [al-Ja'kubi II, 561]. Yaxshi xizmati uchun mukofot sifatida unga Amudaryo havzasining yuqori qismidagi Vaxsh va Halovard hamda Shuman viloyati mulk sifatida berilgan [al-Jakubi: 291]. Abbas ibn Hoshimga Balx shahri ham mulk qilib berilgan bo'lsa kerak, chunki 233 – 259/847 – 872-yillarda Balxda uning o'g'li Dovud ibn Abbas

¹ Eroniy tillarda *kiya* so'zi “xo'jayin, hukmdor” degan ma'noni anglatadi [Ртвеладзе 1988, 52]. Ammo X – XI asr boshlarida *qaja / qija* unvonini Beshbaliq uyg'urlari ham ishlatganlar [Тугушева 1972, 245, 255]. Bu so'zning kelib chiqishi turkcha *qaj / qaji* etnonimi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin [Мирзаев 2024, 155].

hukmronlik qilar edi. Uning vafotidan keyin Balxdagi hokimiyat Hoshimning ukasi Ahmad ibn Banichurning o'g'li Abu Dovud qo'liga o'tadi [Бартольд 1963, 64]. Abu Dovud o'z mulkini sezilarli darajada kengaytirib, 279/892–93-yilda To'xoriston, Juzjon, al-Xuttal va Termizga egalik qilgan [Vasmer 1925, 53].

Xuttalondagi Yuz shahri Xotim ibn Dovud ibn Banichurga tegishli edi [al-Jakubi, 289]. Badaxshon Ibn al-Fath ismli bir shaxsning mulki (*al-tamlaka*) edi [Ibn Haukal, 447]. Ehtimol, u mashhur turk lashkarboshisi al-Fath ibn Xoqonning avlodlaridan bo'lgandir. 233 – 253/847 – 867-yillarda Balx hukmdori Dovud ibn al-Abbos ibn Hoshim ibn Banichur edi [Та'рих-и Систан, 217; Гардизи, 57], 260 – 265/873 – 879-yillarda esa Abu Dovud Muhammad ibn Ahmad edi, 279/892–93-yilda u To'xoriston, Juzjon, Xuttalon va Termizga ham egalik qilgan [de Zambaur 1927, 204]. Abu Dovudning vorisi Ahmad edi, u Balx (292/904-05), Andarob (288/900–01, 290/902–03, 292 – 294/904 – 907), Bomiyon (292 – 293/ 904 – 906), Termiz (293/905-06) va Xuttalon (310 – 313/922 – 936)da tangalar zarb qilgan [Vasmer 1925, 50 – 58]. 345/956–57-yilda Termizda Amir Aq-tegin, 346/957–58-yilda esa Amir Qut-tegin hukmronlik qilgan [Ртвеладзе 1989, 99; Кочнев 2002, 59], shuningdek, u Bust, ar-Ruxxaj, Balx va Buxoro shahrining ham hukmdori edi [Ibn al-Athir VIII, 188]. 324 – 326/935 – 938-yillarda Balx Bilga-tegin ismli hukmdorga qarashli bo'lgan, shuningdek u Burj Kishm (320 – 326/932 – 938) va Andarob (388/998) shaharlariga ham egalik qilgan [Lowick 1975, 143 – 144] edi [Mitchiner 1977, 133, 147]. Andarob 288/900–01-yilda Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammadga tegishli bo'lib, 310 – 313/922 – 925-yillarda u Xuttalon hukmdori ham edi [Vasmer 1925, 50 – 57]. Uning o'g'li Ja'far ibn Abu Ja'far ibn Abu Dovud 318/930-yilda Somoniylar tomonidan tayinlangan Xuttalon hokimi edi [Ibn al-Athir VIII, 30; Бартольд 1963, 252]. Uning o'g'li Ahmad 335/946-47-yilda Muxtojilar sulolasidan bo'lgan Chag'oniyon hukmdori Abu Ali Ahmad ibn Muhammad as-Sag'oniy boshchiligidagi Somoniylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonda qatnashgan. Xuttalon hukmdori Ahmad ibn Ja'farning lashkar-boshisi Sarhang Bajkam at-Turkiy edi [Бартольд 1963^a, 257].

Shug'non va Badaxshon Xumor-bek ismli bir shaxsning mulki edi [al-Jakubi: 292]. Xuttalondagi Bik (بيك) shahri va shu nomli rustoq Bik (Bek) ibn al-Abbos ismli turk hukmdoriga qarashli bo'lib, u Nozkul (نازكول) nomli ko'l bo'yida naslli otlarni boqish bilan shug'ullanar edi [Hudud al-'Alam, 119; al-Istakhri, 339; Ibn Haukal,

447, 518; al-Moqaddasi, 49, 290]. Xuttalon poytaxti Hulbuk va Andicharog shahri 272 – 293/885 – 906-yillarda Dovud ibn Abu Dovud ibn al-Abbosning jiyani bo'lgan al-Horis ibn Asad ibn Bekning mulki edi [Ibn Khordadbeh, 180]. Al-Horis ibn Asadning 292 – 296/904 – 909-yillarda Xuttalonda zarb etilgan tangalari ma'lum [Кочнев 2002, 59 – 66; Ртвеладзе 1989, 99].

Farg'ona dastlab Ahmad ibn Asad ibn Somon avlodlarining mulki bo'lgan [Быков 1971, 72 – 73], lekin Nuh ibn Nasr vafotidan so'ng (hukmronligi 331 – 343/943 – 954-y.) bu hudud avval Ash'as ibn Muhammad (Quba, 355/965-66 va 359/969-70)ga so'ngra Hojib Mansur ibn Boyqaro (Quba, 356/966-67, Axsikat, 355/965-66, 356/966-67, Farg'ona, 358/968-69)ga mulk sifatida berildi. [Давидович 1960, 254 – 255; 1980, 127 – 128]. IX asrda O'zgand shahri Xur-tegin (yoki Chur-tegin) ismli dehqonning mulki edi [Ibn Khordadbeh, 30; Kodama, 208]. 312/924-25-yilda O'zgand Malik ibn Shukr-teginning mulki bo'lib, uning ismi arabcha *malik* (ملك) — “hukmdor” so'zidan emas, turklar orasida keng tarqalgan Malik ismidan kelib chiqqan. Otasining ismi turkcha Sunqar ismi bilan taqqoslanadi. 335 – 344/946 – 956-yillarda Nasrobod, 330 – 342/941 – 954 va 359/969-70-yillarda esa Farg'ona ham unga qarashli bo'lgan [Кочнев 1984a, 185 – 205]. 372/982-83-yilda O'zgand Bilga-tegin ibn To'g'rul ismli hukmdorning mulki bo'lib, unga ikkinchi darajali hukmdorlar Hojib Ayach va Takin (تکین) – “tegin” unvonli yana bir hukmdor bo'ysunganlar. Ikkinchi darajali hukmdorlardan yana biri Qilich al-Hojib Ahmad ibn 'Ali (Axsikat, 357/967-68, 359/969-70) edi. Somoniylar davrida Farg'onada zarb etilgan tangalarda Bakr ibn Molik, Hojib Tosh (Farg'ona, 366/976-77, 367/977-78) kabi turk hukmdorlari ham qayd etilgan [Кочнев 1988, 191 – 205]. Taxmin qilish mumkinki, bu hukmdorlarning aksariyati Somoniylargacha bo'lgan mahalliy hukmron sulolalarga tegishli bo'lib, ular markaziy hokimiyatni faqat nomiga tan olganlar, amalda esa deyarli mustaqil edilar [Давидович 1956, 14 – 26]. Ulardan ba'zilariga, masalan, Hojib Ayachga, yaxshi xizmati uchun mukofot sifatida mulk yerlari tortiq qilingan. X asr Farg'ona tangalarida mahalliy hukmdorlarining 4 darajali boshqaruv tizimini kuzatish mumkin [Давидович 1972, 110 – 141].

Somoniylarning yuqori martabali amaldori Qut-teginning ko'plab mulklari bo'lgan, jumladan, uning Buxoro shahriga ma'lum miqdorga egalik huquqlari bo'lib, bu yerda u 347 – 349/958 – 960-yillarda o'z nomidan tangalar chiqargan [Кочнев 2002, 59 – 66]. Baykand shahrida taxminan 393 – 408/1002 – 1018-yillarda

Atim-tegin ismli hukmdor hukmronlik qilgan [Кочнев 1978, 123]. Farg'ona, Xorazm, Isfijob, Guzganon va boshqa ba'zi viloyatlarning hukmdorlari Somoniylardan deyarli mustaqil bo'lib, ularga soliq o'rniga faqat sovg'alar jo'natib turgan [al-Moqaddasi: 337]. Farg'onadagi ba'zi turk hukmdorlari, xuddi Somoniylar kabi Maula Amir al-mo'minin, ya'ni "Mo'minlar amirining mijoz"i degan yuksak unvonga ega bo'lgan [Давидович 1972, 111, 131, 141]. Xurosonni *sipohsalor* unvonli Simjuriylar sulolasi boshqargan, keyin Sabuktegin Xurosonga hokim etib tayinlangan, 387/997-98-yilda uning vafotidan keyin esa bu viloyat Bektuzun (387 - 389/997 - 999) ga berilgan.

Xuddi Abbosiylar saroyida bo'lgani kabi, Somoniylarga qarashli yerlardagi ko'plab turk hukmdorlari harbiy xizmat orqali hokimiyat tepasiga kelgan. Biroq ular orasida islomgacha bo'lgan mahalliy turk sulolalarining avlodlari ham ko'p bo'lgan. Ularning ajdodlari Somoniylarga qadar bu yerlarga egalik qilgan, shuning uchun ular markaziy hukumatni faqat nomiga tan olgan va amalda mustaqil bo'lib qolgan [Давидович 1956, 14 - 26].

Somoniylar taxtdan ag'darilib, hokimiyat yangi musulmon-turk sulolasi-Qoraxoniylar qo'lga o'tganida, ularning ko'pchiligi hech ikkilanmasdan yangi hukmdorlar xizmatiga o'tdi. Qarluq xonlari, shuningdek, Saljuq beklari, Somoniylar, Buvayhiylar va G'aznaviylarning qo'shinlari ancha kuchi bo'lsa ham, hayratlanarli osonlik bilan hokimiyatga erishdilar. Hokimiyatning Qoraxoniylar qo'lga o'tishi ularning bosqinchilik siyosati bilan emas, balki, birinchi navbatda, Somoniylar amirligining yemirilishi bilan bog'liq edi [Босворт 1981, 28]. Shuning uchun Horun Bug'roxon 382/992-83-yilda Isfijobdan yo'lga chiqib, Samarqand va Buxoroni egallaganida, unga hech kim qarshilik ko'rsatmadi. Chunki mahalliy aholi, jumladan, amaldorlar ularni arablar istilosidan oldin O'rta Osiyo yerlariga egalik qilgan, hozir esa islom dinini qabul qilib, o'z yurtlariga qaytgan asl hukmdorlari deb hisoblar edi.

Ma'lumki, Somoniylar o'z hukmronligining boshidan oxirigacha, ya'ni 100 yildan ko'p davr davomida mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelganlar va o'z nazorati ostidagi yerlarda deyarli har yili hukumatga qarshi ko'tarilgan g'alayonlar, isyonlar va qo'zg'olonlarini bostirishga majbur bo'lganlar [Босворт 1971, 146; Гафуров 1972, 379; Нерматов 1977, 121 - 123]. Shunisi e'tiborga loyiqki, Qoraxoniylar hokimiyatga kelishi bilan barcha xalq g'alayonlari darhol to'xtab, ularning hukmronligi davomida ularga qarshi birorta ham isyon yoki qo'zg'olon ko'tarilmadi. Umuman,

Somoniylardan keyin hukm surgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar kabi barcha turk sulolalarining hukmronlik davri (XI – XIII asr boshi) O'rta Osiyoda birorta ham xalq qo'zg'oloni yoki hukumatga qarshi isyon yoki g'alayonlar qayd etilmaganligi bilan ajralib turadi. Tashqi dushman, ya'ni Xitanlar (Qoraxitoylar) bilan olib borilgan urushdan tashqari, faqat alohida qabilalararo to'qnashuvlar va mahalliy hukmdorlarning o'zaro urushlari bo'lgan [Капаев 1983, 166 – 196]. Ularning eng yiriklari yangi yarim mustaqil davlat tuzilmalari, ya'ni yuqorida tilga olingan sulolalarning vujudga kelishiga olib keldi.

